

Baxtiyorova Nozima

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2 – kurs talabasi

Karimov Ulug'bek Nusratovich

Ilmiy rahbar/ supervisor: PhD

JAVLON JOVLIYEVNING “QO'RQMA” ASARI HAQIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri iste'dodli yozuvchi Javlon Jovliyevning “Qo'rqma” asariga munosabat bildirilgan. Asarning bosh va yordamchi g'oyalari. Shuningdek, asarning o'ziga xos noodatiy uslubi haqida fikrlar. Asarni yozishdan yozuvchining ko'zlagan maqsadi va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida.

Annotitation: In this article, there is a reaction to the novel “Don't be afraid” by one of the bright representatives of modern Uzbek literature, a talented writer, Javlon Jovliyev. The main and auxiliary ideas of the book. In addition, opinions about the unusual style of this book. The writer's purpose from writing this book and its significance today.

Kalit so'zlar: Germaniya, Turkiston, jadidlar, “Ko'mak” jamg'armasi, talabalar, XX asr, Roviyy, sovetlar, Ulug' kursdosh, Qoravoy, Telefonchi, Lola, millat

Key words: Germany, Turkestan, Jadids, “Contribution” foundation, students, XX century, narrator, soviets, Ulugh kursdosh, Karavoi, Lola, nation

Javlon Jovliyev (1991-yil 24-iyul; Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani, G'ishtli qishlog'i) – yozuvchi va dramaturg. „Oltin qalam“, Qo'rqma asari uchun Tahsin hamda “Kelajak Bunyodkori” davlat mukofoti bilan taqdirlangan adib. O'zbekiston Yozuvchilar

Qo'rqma – yangi davrning yangi va dardchil, yangicha uslubda va o'ziga xos ohang bilan yozilgan yangi romanidir. Muallif o'z fikri, Niyati ifodasi uchun shunday – hech kim o'ylamagan bir badiiy usul – yo'lni o'ylab topibdi. Yangilik topildiqlar bilan go'zal va adabiyotdagi orginallik taqliddan qutilish bilan, yangicha rang bilan betakror bo'ldi. Asarni o'qish davomida kitobxon uning o'ziga xos betakror yozilish uslubi va go'zal badiiy jilosidan hayratga tushadi. Romanning o'ziga xos uslubida vaqt va voqelikni tizimi, ketma- ketligi, ularning chegaralari istalgan mahali buzilishi mumkin va bu tabiiy hol tuyuladi.

Asar voqealari roviy tarixchi talaba tomonidan so'zlab beriladi. Ushbu asarda ko'tarilgan bosh va mavzu bu ilmdir. Asarda yozuvchi bugungi kunda tolibi ilmlar bilan bundan yuz yil avvalgi ilm talabida bo'lgan yoshlarni taqqoslaydi. Romanda 1920- yilda jadidlar va bir qancha millat fidoiylari tomonida tuzilgan “ko'mak” jamg'armasi tomonidan o'qish uchun Germaniyaga jo'natilgan 70 nafar talabaning barchamizga ma'lum bo'lgan, alamli qismati haqida bayon qilinadi. Roviyy o'zini o'sha talabalardan biri bo'lgan lekin yurtiga xiyonat qilgan, ya'ni sovetlarga josuslik qilgan bir talabaning avlodi sifatida tanishtiradi. Roviyy yigitning aytishicha, uning dadasi ham, amakilari hammasi o'qishdan haydalib qaytib kelishadi. U oilasidan yagona o'qiyotgan a'zo bo'ladi, shuning uchun ham uni yaqinlari juda ham yaxshi ko'rishadi. Lekin uning fikricha, undan olim chiqmaydi, chunki u o'sha sotqin talabaning avlodi, uning amakilarining o'qiyolmasligining sababi ham shudir, ya'ni uning avlodiga qarg'ish tekkan – la'natlangandir.

Shuningdek, roviy o'zining xonadoshlarini ramziy ma'noda hozirgi kundagi talabalarning ifodasi qilib ko'rsatadi.

- Ulardan biri telefonchi bo'lib, uning misolida XXI asr balosiga aylanib borayotgan telefon – internet balosi, ya'ni faqatgina telefonga bog'lanib qolib, real hayotdan uzoqlashib ketayotgan minglab yoshlarni, talabalar tasvirlab beradi.

- Yana bir qahramon Qiztaka esa hozirgi kunimizdagi eng katta muammolarimizdan biri – ya’ni nafs orqasidan ergashib to’g’ri yo’lni yo’qotgan insonlar timsolidir. Qiztaka shunday qahramonki – u ota- onasi o’qish uchun bergan barcha pullarni faqatgina qizlar bilan kayf- safo qilishga sarflaydi. U haqidagi ta’riflarni roviy yigit tilidan eshtar ekanmiz ich- ichimizdan bir paytlar ilmi ila dunyoni hayratga solgan buyuk zotlarning avlodlari shu holga tushgani ichimizni tirnab ketadi.

- Keying qahramonimiz Qoravoy esa qishloqdan o’qish uchun shaharga keladi, lekin o’rtoqlari uning ustidan Qoravoy deb kulishgani uchun oqarish maqsadida kuniga soatlab cho’miladi va oxir- oqibat kasal bo’lib vafot etadi. Ushbu ramziy qahramon misolida hozirgi kunda jamiyatimizda odamni tashqi ko’rinishiga qarab, unga baho berishning qanchalik achinarli bir holat ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Ushbu ramziy qahramonlarning har birining taqdiri fojiali ravishda tugashi, yosh umrlarining nafslari sabab xazon bo’lishi juda ham achinarli bir holatdir. Asarda e’tiborga molik yana bir qahramonlardan biri bu Ulug’ kursdoshdir. Ushbu qahramon universitetda yuqori lavozimda ishlaydi, lekin u ham nafsining quliga aylanib bo’lgandi. U pora evaziga juda ham ko’plab noqonuniy ishlar qilgani yetmaganidek, juda ham ko’plab qizlarning nomusini bulg’ardi. Uning jirkanch ishlari shunchalar ko’p ediki, undan nafratlanmaslikning iloji yo’q. Bosh qahramon ularning hayoti haqida gapirib turib, universitetda o’qiyotgan boshqa talabalardan “o’qishga nima maqsadda kirgansan?” “nega o’qiyapsan?” degan savollarni so’raydi. Afsuski, hech qaysi bir talaba nima maqsadda o’qiyotganini bilmaydi.

Roviy XX asr boshida o’qish, millatini xorlikdan, qullikdan qutqarish, maqsadida Germaniyaga ketgan talabalardagi shijoat, aql- zakovat, vatanparvarlik tuyg’ularining bugungi kunda ilm olish uchun barcha sharoitlar yaratib berilayotgan, barcha ilm eshiklari ochiq bir davrda yashayotgan yoshlarda yo’qligiga qayg’uradi. Sattor Jabbor, Maryam Sultonmurodova, Ahmad Shukuriy va Abduvahob Murodiy kabi talabalarining Germaniyada qanchalik qiynalishaganiga qaramasdan, ularning ba’zan kiyimga, ba’zan hattoki ovqatga pullari bo’lmasa- da, ularning ilm olishdan bir daqiqa ham to’xtashmaganligi, ularning u yerda “Ko’mak” jurnali chiqarganini, teatr truppassi tashkilotishgani bizga ma’lumdir. Shuncha mashqatlarga qaramasdan ular o’qishni tugatishdi. Har biri o’z sohasining professionaliga aylandi va vatanida muqarrar o’lim kutib turganiligini bilsa ham ortga qaytib kelishdi, chunki ular vatani oldida o’zlarini qarzdor deb bilishardi. Ular o’zlarining Germaniyada o’qishi uchun oxirgi puligacha yig’ib bergan xalqni zulmatdan qutqarishni istashardi. Lekin afsuslar bo’lsinkim, ular sovetlar zulmidan qochib qutula olishmadi, ular el- yurt manfaati yo’lida qahramonlarcha halok bo’lishdi. Ayniqsa, ular Ichida qizlarimizning ham borligi haqiqiy tasanno aytisak arziydigan bir holatdir. Ularning fojiali tarixi haqida sahifalarni o’qir ekanmiz, shubhasiz har bir kitobxonning qalbida bir alam, o’kinch paydo bo’ladi.

Shu o’rinda yozuvchi bosh qahramonning sevgan qizi Lola timsolida bugungi kunda chet elda ta’lim olayotgan ba’zi bir talabalarimizning hayotini yoritib beradi. Afsuski, Lola Germaniyaga ketgach butunlay o’zgarib ketadi. U bir necha boyvachcha talabalarga qo’shib aysh- ishratdan boshi chiqmay qoladi. Na Lolaning, na u bilan birga Germaniyada qo’shtirnoq ichida ta’lim olib yurgan talabalarining hech birining vatan manfaati, el- yurt oldidagi burch degan narsalar hatto hayolining bir chekkasiga ham kelmasdi. Ular faqatgina o’z nafslari uchun o’qishardi. Vatanga xizmat degan tushuncha ular uchun yot edi.

Nega asar “Qo’rqma” deb nomlandi? Xavf nimada? Xavfning ildizi har bir kimsaning o’zida; o’zining kimligini anglamaslikdadir. Roman o’quvchini mard, botir, oriyatli bo’lib qo’rqmasdan yashashga hamda vatanparvar, elparvar, haqiqatparvar bo’lishga chaqiradi. Qo’rqoqlik yomon, el- yurtni qultabiat, qulfitratlar, qulfarandlar bilan to’ldirish fojea. Muallif shunday deydi: “Mardlarning onasigina onadir faqat”. “Onalar siz kimlarni tug’ayotibsiz?!”. “Ona tirik, ota tirik, ammo bola yetim qo’yday o’sdi. Bolalikdan mardikor bo’lib o’sdi”. Darhaqiqat, dunyodagi eng katta adolatsizlik bu – bolani dunyoga keltirib, unga to’g’ri tarbiya bera olmaslik, uni ilmi tolib qilib tarbiyalamaslik, uning ta’lim- tarbiyasiga befarq bo’lishdir. Bizning fojiamiz shudir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qo’rqma” Javlon Jovliyev, Toshkent – 2022, uchinchi nashr
2. <https://civil.uz/qorqma-asari-haqida-javlon-jovliyev/>
3. Central Asian academic journal of scientific research, ISSN: 2181-2489, Volume 2/ ISSUE 1/ 2022
4. Adabiyotshunoslik nazariyasi X.Umarov : Oliy o'quv yurtlari uchun darslik T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b
5. Dilmurod Quronov, Zokirjon mamajonov, Mahhura Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati / f.f.d Dilmurod quronovning umumiy tahriri ostida. Toshkent: Akademnashr, 2010 – yil – 400 b.
6. Международный научный журнал №9(100), часть 1 «Новости образования: исследования в XXI веке» апреля, 2023г 233 "QO'RQMA" ROMANI HAQIDA Eshimbetova Fotima